

**BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI –YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA
YO'NALTIRISH VA KASB – HUNAR TANLASHNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK
JIHATLARI**

Salomova Iroda Boboxonovna

Qashkadaryo viloyati Koson tumanidagi 3 - kasb- xunar maktabi Psixolog

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy muammolarimizdan biri:ta'lismuassasalarimizda bugungi zamonaviy kasblar o'quvchi shaxsi va yoshlarni kasbhunarga yo'naltirishning ijtimoiy –psixologik jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy kasb – hunar, aktuallik, psixologik menlik, informatsion shaxs, oilaviy muhit, psixologik salomatlik, adekvat munosabat.

Annotation: This article deals with one of our main problems: the personality of today's students of modern professions in our educational institutions, and the social-psychological aspects of directing young people to professions.

Key words: modern profession - craft, actuality, psychological self, informative person, family environment, psychological health, adequate attitude.

Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?

Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Sh. Mirziyoyev

KIRISH

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga qo'yiladigan pedagogik - psixofiziologik talablar umumiyl xolda quyidagi xulosalarga olib keldi: - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish; - o'quvchilarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o'zaro aloqasida namoyon bo'luvchi shaxsning murakkab sifati ekanligini anglash;

- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvar uyushtirish; - o'smirlarni mexnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- Ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish; - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar yaratish lozim.

Bugungi ta’lim tizimidagi jadal intellektual o’zgarishlar ta’lim subyektlariga turlicha ta’sir ko’rsatyapti. Nimaga deganda, ta’lim subyektlari bo’layotgan hamma yangiliklar, hamma o’zgarishlarga ham psixologik, intellektual tayyor emaslar. Ayniqsa, ta’limning asosiy ishtirokchisi – o’quvchilar bo’layotgan o’zgarishlarni osonlik bilan qabul qilishmaydi. Bunga turli omillarni sabab qilib ko’rsatishimiz mumkin. Avvalo, bugungi zamonaviy o’quvchi shaxsini kurib chiqadigan bo’lsak:

- ✓ bugungi zamonaviy o’quvchi informatsion bolalar
- ✓ o’quvchida aggressivlik darajasi yuqori
- ✓ o’quvchi o’zining menligini taniydigan va talab qiladigan
- ✓ o’quvchining qiziqish doirasi keng
- ✓ o’quvchining intilishi ko’proq reallikdan ko’ra noreallikka
- ✓ zamonaviy o’quvchi juda tezkor va beqaror
- ✓ zamonaviy o’quvchi o’z mustaqil fikriga ega
- ✓ zamonaviy o’quvchining yo’nalgan sohasi IT

Tanganing ikki tomoni bo’lganidek, bugungi zamonaviy o’quvchilarning ham ijobiy va salbiy xususiyatlarini kurishimiz mumkin. Ijobiy tomomlaridan bugungi asr bolalari informatsiyalarni, yangiliklarni shu qadar tezkorlik bilan o’zlashtirishyaptiki, ba’zida soha mutaxassislarni ham ortda qoldirishadi. Maktablarimizda salohiyatli, intellekti yuqori o’quvchilar juda ko’p. Buning uchun uzlusiz ta’lim tizimining barcha jabhalarida o’quvchilarni kasbga yo`naltirishning ahamiyati kattadir. O’quvchilarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o’z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallahning faol, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi.

ASOSIY QISM

O’quvchilarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlanirish va shakllantirish ishlarini o’z ichiga oladi. Shaxsiy-psixologik omillarga esa e’tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma’lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o’rganishda shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-texnologik foliyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib toptirishdir. Kasbiy yo`naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun psixologlar yuksak g`oyaviy, printsipial, siyosiy etuk va ma`naviy barqaror inson bo’lishi shart. Psixolog o’zining – o’quvchilarini bilish va

hurmatlash, doimo ularning har tomonlama kamol topishi uchun qayg`urish, ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, har biriga yakka holda yondashish kasbga yo`naltirish, pedagogik mahorat, o`z ustida uzlusiz ijodiy ishslash, o`z bilimlarini takomillashtirib borish, yuksak saviyaga erishishi muhim ahamiyatga ega. Kasb tanlashda o`quvchilarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo`lib xizmat qiladi. Kasblar bo`yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo`lib ular bir - biridan farq qiladi. Psixologlar o`quvchilarga ma`lumot-axborot beruvchi maslahatlar: Ular kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. Kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo`yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qayerda, qanday qilib o`rganish yo`llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi: shu maslahatning o`zida siz kasb mahoratini oshirish yo`llari to`g`risida ham ko`pgina ma`lumotlarni bilib olish mumkin. Psixologlar diagnostik kasb maslahatini berish: Kishini har tomonlama o`rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo`lgan ayrim sifatlarni aniqlab o`rganishga qaratilgandir. Bunday maslahatdan maqsad-faoliyatning qanday sohasida siz muvaffaqiyatli ishlappingiz mumkinligini, ya`ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o`z mehnatingizdan mumkin qadar ko`proq “Kasbga qiziqish va kasb tanlash” Kasb xunar ta`limidan qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o`tkazadilar. Ular shaxsni o`rganishning anketa to`ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo`llaydilar.

Kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o`z-o`zini o`zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne`matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o`xshash. Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma`ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o`zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo`ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo`naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, o`quvchilarni ta`lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri kasb tanlashlariga erishish uchun mакtab o`qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatları yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`garak va qo`shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, mакtablarda kasb-

hunar to`g`risida ma`ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`tkazilishi,sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar foto ko`rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma`ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini yanada qat’iy lashishini vujudga keltiradi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev – Erkin va faravon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O’zbekiston, 2016
2. Sh.M. Mirziyoyev – Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g’oyamizning poydevoridir. T. “Tasvir”, 2021 – 36 b.
3. G’oziyev E. – Umumiy psixologiya. T. Sharq, 2001.
4. Shoumarov B. Oila psixologiyasi. -T. Sharq, 2001. 272 b.
5. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU, 1999-152
6. Mirenskiy B.A. Oila va O’smir. - T.O’qituvchi , 1991.
8. . Internet saytlari: ziyonet.uz, gov.uz, lex.uz